

Рекомендации. Для повышения эффективности отрасли предлагаются следующие меры:

1. Создание Национальной MICE-платформы с интеграцией ИИ, VR/AR и блокчейн-технологий.

2. Развитие региональных цифровых хабов и строительство «умных» конгресс-центров.

3. Подготовка кадров через образовательные программы в сфере цифрового MICE-менеджмента.

4. Внедрение принципов устойчивого развития и «зелёных» мероприятий.

5. Цифровой маркетинг для продвижения Узбекистана на международном рынке.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Развитие MICE-туризма на основе цифровых технологий является стратегически важным направлением для Узбекистана. Решение инфраструктурных и технологических проблем позволит значительно повысить конкурентоспособность страны, увеличить доходы от туризма и укрепить её позиции в Центральной Азии.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Илхомова Г.З. Digital technologies as a driver for the development of MICE tourism in Uzbekistan. *Green and Ecological Economics*, 2025. DOI:10.5281/zenodo.15161612

2. Кадамбоев Б. Potentials and prospects of MICE tourism in Uzbekistan. *CyberLeninka*, 2021.

3. Мадримова А.А. MICE-туризм: глобальное сотрудничество для развития. *International Conference on Science and Technology*, 2026.

4. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по организации деятельности Комитета по туризму», 20.11.2025.

5. Uzbekistan reforms tourism development system. *Sputnik Uzbekistan*, 2026.

6. Digitalization as a trend in the MICE industry. *MICE&More*, 2025.

7. MICE tourism in Uzbekistan – business tourism in the heart of Asia. *Advantour*, 2026.

8. Совершенствование организационно-экономических механизмов развития MICE-туризма. *Neliti*, 2026.

*Saidakbarxon A'ZAMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT DASTURLARI VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI

Annotatsiya. O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirishda davlat dasturlari va investitsiya siyosati markaziy rol o'ynab, soha o'sishini ta'minlashda muhim institutsional-iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada empirik ma'lumotlar va nazariy tahlil asosida davlat dasturlari, investitsiya oqimlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda turizm

infratuzilmasining rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'siri baholanadi. Shuningdek, 2020–2025-yillar kesimidagi investitsiya hajmi, turistlar oqimi va davlat dasturlari bo'yicha KPI natijalari asosida sohaning rivojlanish tendensiyalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: davlat dasturlari, investitsiya siyosati, turizm rivojlanishi, iqtisodiy o'sish, turizm infratuzilmasi, davlat-xususiy sheriklik, turistik klasterlar.

Аннотация. В развитии туристической отрасли Узбекистана государственные программы и инвестиционная политика играют центральную роль, выступая важным механизмом обеспечения роста сектора. На основе эмпирических данных и теоретического анализа раскрывается влияние государственной политики, инвестиций и механизмов государственно-частного партнерства на показатели туризма и тенденции развития отрасли.

Ключевые слова: государственные программы, инвестиционная политика, развитие туризма, экономический рост, туристическая инфраструктура, государственно-частное партнерство.

Abstract. In the development of Uzbekistan's tourism sector, government programs and investment policy play a central role as key institutional and economic mechanisms for ensuring sectoral growth. Based on empirical data and theoretical analysis, the paper assesses the impact of public policy, investment flows, public-private partnership mechanisms and tourism infrastructure on tourism development indicators. The study also examines investment dynamics, tourist flows and KPI performance of government programs for 2020–2025.

Key words: government programs, investment policy, tourism development, economic growth, tourism infrastructure, public-private partnership.

Kirish

O'zbekiston turizm sohasining so'nggi yillardagi rivojlanishi mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi hamda turizmni milliy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biriga aylantirishga qaratilgan davlat dasturlari bilan bevosita bog'liqdir. Turizm xizmatlari bozori infratuzilma, transport-logistika, mehmonxona xo'jaligi, raqamli xizmatlar, madaniy meros obyektlari va hududiy klasterlar bilan uzviy aloqador bo'lgani sababli ushbu sohada davlat dasturlari va investitsiya siyosatining muvofiqlashtiruvchi roli alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston turizm sohasining so'nggi ilmiy tadqiqotlari mamlakatning "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida turizm tizimining dolzarb muammolari, ichki va tashqi turizmning hozirgi holati, mahalliy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, mehmonxona xizmatlari bozorini takomillashtirish mexanizmlari hamda turizmni innovatsion rivojlantirishda investitsiyalarning roli va tasnifini kompleks yoritadi. Soliyev Yangi O'zbekistonda turizm tizimining infratuzilma, xizmat sifati va ekologik xavfsizlik bilan bog'liq dolzarb muammolarini sifatli tahlil va me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi asosida o'rganib, davlat siyosati, investitsiya oqimlari va xususiy sektor ishtirokini sohani barqaror rivojlantirishning asosiy omillari sifatida ko'rsatadi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, turizm sohasida investitsiyalarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish, hududiy turistik klasterlarni shakllantirish va xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish iqtisodiy o'sish, bandlik va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan davlat dasturlari nafaqat tartibga soluvchi hujjatlar majmui, balki turizm resurslarini

iqtisodiy qiymatga aylantirish, hududiy salohiyatni safarbar etish va investitsion muhitni yaxshilashga yo'naltirilgan strategik boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili turizm rivojlanishida davlat siyosati, investitsiya oqimlari, infratuzilma va xususiy sektor ishtiroki o'zaro bog'liq omillar ekanligini ko'rsatadi. Toirova ichki va tashqi turizmning holati, transport infratuzilmasi, viza rejimi va marketing bilan bog'liq muammolarni, ekoturizm, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorlik kabi istiqbolli yo'nalishlarni statistik ma'lumotlar va taqqoslama tahlil asosida tadqiq etib, turizmning iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sirini qayd etadi.

O'sarov mahalliy turizmni rivojlantirishning hozirgi holatini SWOT tahlili yordamida baholab, kuchli tomonlar sifatida tarixiy meros va tabiiy salohiyatni, zaif jihatlar sifatida infratuzilma yetishmovchiligi va axborot tanqisligini, imkoniyatlar sifatida raqamli platformalar va ekoturizmni, tahdidlar sifatida esa raqobat va mavsumiylik omillarini aniqlaydi. Ushbu yondashuv hududiy turizm siyosatida mavjud resurslardan samarali foydalanish, infratuzilma cheklovlarini kamaytirish hamda mavsumiylikni yumshatishga qaratilgan dasturiy choralar muhimligini asoslaydi.

Mansurov mehmonxona xizmatlari bozorini samarali rivojlantirish mexanizmlarini davlat talablari asosida optimallashtirish, "yulduz" tizimining sifatini saqlash va kadrlar tayyorlash nuqtai nazaridan tahlil qilib, normativ talablarning haddan tashqari susayishi mehmonxona segmentining obro'si va xizmat sifati pasayishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Raxmatullayev esa turizmni innovatsion rivojlantirish jarayonida investitsiyalarning rolini va ularning moddiy, nomoddiy, intellektual hamda moliyaviy shakllarini nazariy-amaliy tahlil asosida tasniflaydi hamda turizmning iqtisodiyotdagi multiplikator tarmoq sifatidagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Xalqaro manbalarda ham turizmning iqtisodiy multiplikativ ta'siri, investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ahamiyati keng yoritiladi. UN Tourism ma'lumotlari xalqaro turizm tiklanish jarayoni pandemiyadan keyingi davrda barqaror davom etayotganini ko'rsatsa, WTTC tadqiqotlari turizmning global YaIM va bandlikdagi ulushi yuqori ekanligini qayd etadi. Shu bois O'zbekiston tajribasida davlat dasturlari va investitsiya siyosatini uyg'unlashtirish turizmni barqaror iqtisodiy o'sish manbaiga aylantirishda muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Metodologik jihatdan o'rganilgan tadqiqotlar sifatli tahlil usullari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi, SWOT tahlili, taqqoslama yondashuvlar, statistik ma'lumotlar tahlili va ekspert baholariga tayanadi. Ushbu usullar turizm tizimining institutsional rivojlanishi, hududiy imkoniyatlar va xizmatlar bozori dinamikasini kompleks o'rganishga imkon beradi. Mazkur maqolada ham davlat dasturlari va investitsiya siyosatining turizm ko'rsatkichlariga ta'siri empirik ma'lumotlar, jadval ko'rsatkichlari va nazariy umumlashtirish asosida yoritiladi.

Tadqiqotlarning asosiy ilmiy natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud turizm

infratuzilmasi xorijiy sayyohlar talablari hamda xalqaro standartlarni to‘liq qondira olmaydi. Mehmonxona xizmatlari bozorida “yulduz” tizimi talablaridan chekinish sifatning pasayishiga va bozordagi raqobatbardoshlikning susayishiga olib keladi. Ichki turizmning o‘sishi aholining milliy identifikatsiyasini mustahkamlaydi, mahalliy iqtisodiy faollikni oshiradi va hududiy xizmatlar diversifikatsiyasini rag‘batlantiradi. Investitsiya oqimlarining ko‘payishi esa turizmning multiplikativ ta‘sirini kuchaytirib, transport, savdo va xizmat ko‘rsatish kabi yaqin tarmoqlarda qiymat zanjirining kengayishiga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotlar Markaziy Osiyo va boshqa rivojlanayotgan mintaqalarda xalqaro hamkorlik va institutsional islohotlarning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishdagi rolini tasdiqlab, global o‘zgarishlar sharoitida pragmatik va ekologik barqaror strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusidagi tadqiqotlar mintaqaviy heterogenlik, uzoq muddatli ta‘sir va investitsiya samaradorligini chuqurroq o‘rganish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqotda moliyalashtirish, resurslar taqsimoti va klasterlash mexanizmlari asosida turizmning hududiy rivojlanishi tahlil qilinadi. Tizimli tahlil va xorijiy tajriba natijalari turistik klasterlar samaradorligi 10–20% ga oshishi mumkinligini ko‘rsatadi, biroq bunday natijalarga erishishda moliyalashtirishning barqarorligi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining aniq huquqiy asoslari va loyihalar o‘rtasidagi muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda afzallik resurslarni birlashtirish va xususiy kapitalni jalb qilishda, kamchilik esa boshqaruv jarayonining murakkabligi hamda manfaatdor tomonlar o‘rtasida institutsional muvofiqlikni ta‘minlash zaruratida namoyon bo‘ladi.

Sharaldaeva Rossiyada davlat-xususiy sheriklikning turizm sohasidagi holatini o‘rganib, kontraktlar, konsessiyalar va boshqa shakllarni ajratadi hamda 2018-yil holatiga ko‘ra federal okruglar bo‘yicha loyihalar soni va qiymatini baholaydi. Masalan, Markaziy federal okrugi 67 loyiha bilan 60% ulushni egallagan. DXSh “davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik” sifatida talqin qilinib, uning afzalligi investitsiyalarni jalb qilish, kamchiligi esa huquqiy bazaning yetarlicha mukammal emasligi bilan izohlanadi. Ushbu xulosalar O‘zbekiston sharoitida ham turizm investitsiyalarini samarali boshqarish, loyihalarni tanlash va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Yillar bo‘yicha turizm sohasiga xorijiy investitsiya hajmi (mln. USD, 2020–2025)

Yil	Investitsiya hajmi (mln. USD)	O‘sish (% da)	Manba (yil)
2020	800	-	stat.uz (2021)
2021	1200	+50	WTTC (2022)
2022	1500	+25	invest.gov.uz (2023)
2023	1800	+20	tourism.uz (2024)
2024	2400	+33	UNWTO (2025)
2025	3100 (prognoz)	+29	WTTC (2025)

1-jadval ma‘lumotlari turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 800 mln. AQSh dollaridan 2025-yil prognozida 3,1 mlrd. AQSh dollarigacha oshishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2021-yilda 50% o‘sish pandemiyadan keyingi tiklanish

bosqichida investitsion faollik kuchayganini, 2024–2025-yillarda esa davlat dasturlari, infratuzilma loyihalari va xususiy sektor ishtiroki ta’sirida investitsiya oqimlari jadallashganini anglatadi.

2-jadval

Davlat dasturlari bo‘yicha natijalar (KPI bajarilishi %, 2020–2025)

Dastur/komponent	2020 (% da)	2023 (% da)	2025 (% da) (prognoz)	Manba (yil)
“O‘zbekiston – 2030” (turistlar soni)	60	78	92	gov.uz (2025)
DXSh loyihalari soni	50	78	92	invest.gov.uz (2025)
Soliq imtiyozlari samaradorligi	65	85	95	lex.uz (2024)
Infratuzilma loyihalari (km)	70	86	92	mintrans.uz (2025)

2-jadvaldan ko‘rinadiki, davlat dasturlari bo‘yicha KPI bajarilishi 2020 – 2025-yillar oralig‘ida izchil oshgan. “O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida turistlar soni bo‘yicha ko‘rsatkich 60% dan 92% prognoz darajasiga yetishi kutilmoqda. DXSh loyihalari, soliq imtiyozlari samaradorligi va infratuzilma loyihalari bo‘yicha ko‘rsatkichlarning oshishi davlat siyosatining investitsiya va infratuzilma yo‘nalishlaridagi faolligini tasdiqlaydi.

3-jadval

Turistlar oqimi o‘shishi (mln. nafar, 2020–2025-yillar)

Yil	Xorijiy turistlar (mln. kishi)	Ichki turistlar (mln. kishi)	Umumiy o‘shish (% da)	Manba (yil)
2020	1,5	10,0	-	stat.uz (2021)
2021	1,9	12,5	+25	UNWTO (2022)
2022	5,2	18,0	+120	WTTC (2023)
2023	6,6	22,5	+27	tourism.uz (2024)
2024	8,0	25,0	+21	stat.uz (2025)
2025	10,7 (prognoz)	28,0	+34	WTTC (2025)

3-jadval ma’lumotlari 2020–2025-yillar davomida xorijiy va ichki turistlar oqimining tiklanish va o‘shish trendini aks ettiradi. Xorijiy turistlar soni 2020-yildagi 1,5 mln. nafardan 2025-yil prognozida 10,7 mln. nafarga yetishi, ichki turistlar soni esa 10,0 mln. nafardan 28,0 mln. nafargacha oshishi kutilmoqda. Bu jarayon pandemiyadan keyingi tiklanish, viza tartiblarining soddalashuvi, marketing faolligi, infratuzilma loyihalari va davlat dasturlari ta’siri bilan izohlanadi.

4-jadval

DXSh loyihalari va investitsiya taqsimoti (2023 – 2025-yillar)

Yil	Loyihalar soni (ta)	Hajmi (mlrd. AQSH doll.)	Samaradorlik (ish o‘rinlari)	Manba (yil)
2023	28	5,0	3 000	invest.gov.uz (2024)
2024	42	8,0	4 500	WTTC (2025)
2025	65 (prognoz)	12,0	6 300	tourism.uz (2025)

4-jadval DXSh loyihalari soni va investitsiya hajmining 2023 – 2025-yillarda ortib borayotganini ko‘rsatadi. Loyihalar sonining 28 tadan 65 taga yetishi, hajmining esa 5,0 mlrd. AQSh dollaridan 12,0 mlrd. AQSh dollarigacha oshishi davlat-xususiy sheriklik mexanizmi turizm infratuzilmasini rivojlantirishda muhim moliyaviy manbaga aylanayotganini anglatadi. Samaradorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha ish o‘rinlari sonining 3 000 tadan 6300 tagacha oshishi investitsiya siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy

natijadorligini ham tasdiqlaydi.

Grafik va diagrammalar tahlilni vizualizatsiya qilishda qo'llanilgan bo'lib, Matlab dasturi orqali ishlab chiqilgan. Ular investitsiya taqsimoti, dastur dinamikasi va o'sish trendlarini aks ettiradi. 2025-yil bo'yicha investitsiya manbalari ulushida xorijiy FDI 60%, DXSh 25% va byudjet mablag'lari 15% ni tashkil etadi. Bu tarkib turizm sohasida asosiy moliyaviy yuk xorijiy investitsiyalar va xususiy sektor bilan hamkorlikka to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot davomida turizm sohasini rivojlantirishda davlat dasturlari va investitsiya siyosati muhim institutsional-iqtisodiy mexanizm ekani aniqlandi. Birinchidan, dasturlarning samarasizligi ayrim davrlarda KPI bajarilishining pastligi bilan namoyon bo'lgan: 2021-yilda KPI bajarilishi 70% ni tashkil etgan, 25% loyihalar amalga oshirilmagan. Buning asosiy sabablari pandemiya ta'siri va moliyaviy cheklovlar bo'lib, 2020-yilda byudjet ajratmalari 40% ga pasaygani qayd etilgan.

Ikkinchidan, investitsiya siyosatida hududiy nomutanosiblik mavjud bo'lib, investitsiyalarning 65% markaziy viloyatlarga konsentratsiyalangan. Bunday holat hududiy turizm salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qiladi. Sabab sifatida boshqaruv muammolari, byurokratik tartib-taomillar va loyihalarni tasdiqlash jarayonining 6-9 oy davom etishi ko'rsatiladi. Shu bois investitsiya loyihalarini hududlar kesimida diversifikatsiya qilish, loyihalarni tasdiqlash mexanizmlarini soddalashtirish va mahalliy hokimiyatlarning loyiha boshqaruvi bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish zarur.

Uchinchidan, infratuzilma yetishmovchiligi, xususan mehmonxonalar sifati va transport tarmoqlarining zaifligi turizm xizmatlarining xalqaro standartlarga moslashuvini cheklamoqda. Pandemiya oqibatlarini va texnologik integratsiya yetishmasligi bu muammolarni yanada kuchaytirgan. SWOT tahlili zaifliklar sifatida byurokratiya va infratuzilma cheklovlarini, tahdidlar sifatida pandemiya kabi tashqi xatarlarni ko'rsatadi. PEST yondashuvi esa siyosiy-boshqaruv va iqtisodiy-moliyaviy omillar turizm rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turizm sohasida davlat dasturlari va investitsiya siyosatini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi: birinchidan, turizm dasturlarining KPI monitoringini raqamli platformalar asosida kuchaytirish; ikkinchidan, investitsiya oqimlarini hududlar kesimida muvozanatli taqsimlash; uchinchidan, DXSh loyihalarining huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish; to'rtinchidan, mehmonxona va transport infratuzilmasini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish; beshinchidan, turizm raqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik va klasterlash mexanizmlarini davlat dasturlari bilan uzviy bog'lash zarur.

Umuman olganda, davlat dasturlari va investitsiya siyosatining uyg'unligi O'zbekiston turizm sohasida iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy rivojlanish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli turizm siyosatini uzoq muddatli strategik yondashuv, investitsion barqarorlik, hududiy inklyuzivlik va xizmatlar sifatini oshirish tamoyillari asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisherovna, R.G. (2025). Turizmning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rni. *American Journal of Social Science*, 3(10), 20–26.
2. O'rinbojevna, M. M. M. (2025). O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanishida milliy qadriyatlarning o'rni. Shokh Library.
3. Begzod, S., & Bexzod o'g'li, M.M. (2025). Turizm sanoatining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va imkoniyatlari. *Yangi Renessansda ilm-fan taraqqiyoti*, 1(2), 257–263.
2. Turdibekovich, Q.D. (2025). O'zbekiston tashqi siyosati: mustaqillikdan bugunga qadar. *Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali*, 3(1), 416–432.
3. Abdugafurovna, S.S. (2025). O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tutgan o'rni va sohani rivojlantirishdagi muammolar va yechimlar. Shokh Library, 1(10).
4. Sobirjonovich, A.Z. (2025). Turizm infratuzilmasi rivojlanishida turistik klasterlarning ahamiyati. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(10), 100–104.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. World Travel & Tourism Council. (2025). Travel & Tourism Economic Impact Research: Uzbekistan and global factsheets. WTTC Research Hub. URL: <https://researchhub.wttc.org/product/factsheet-uzbekistan-travel-tourism-economic-impact>
7. UN Tourism. (2025). World Tourism Barometer and tourism recovery data. UN Tourism. URL: <https://www.untourism.int/un-tourism-world-tourism-barometer-data>
8. Шаралдаева В.Д., Максанова Л.Б.-Ж., Шарафанова Е.Е. (2018). Государственно-частное партнерство в сфере туризма в России: состояние и особенности. // Экономика предприятий, регионов и отраслей. № 3-2020. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvenno-chastnoe-partnerstvo-v-sfere-turizma-v-rossii-sostoyanie-i-osobennosti>

Sevinch RAXIMOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi,
Ilmiy rahbar: Shaxnoza KAMBAROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchi, PhD

NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANINING ETNOTURIZM VA HUNARMANDCHILIK SALOHİYATI ASOSIDA XALQARO TURISTIK OQIMLARNI JALB ETISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida turizm sohasining jadal rivojlanishi va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan. Xususan, Namangan viloyatining Chust tumani misolida hududning turistik salohiyati, tarixiy-madaniy merosi, hunarmandchilik an'analari hamda zamonaviy festivallar orqali xorijiy sayyohlarni jalb